

ZAMONAVIY QISHLOQ AHOLISI AGRAR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY OMILLARNING O'RNINI

To'xtayev H. M.

Samarqand davlat pedagogika instituti

Kirish. Jamiyatning barqaror taraqqiyoti qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hajmi bilangina emas, balki agrar faoliyat ishtirokchilarining bilim darajasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va tabiatga munosabati bilan ham belgilanadi. Shu sababli zamonaviy qishloq aholisi agrar madaniyatini shakllantirish masalasi iqtisodiy vazifa doirasidan chiqib, ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Agrar madaniyat qishloq aholisining yer, suv, o'simlik va hayvonot olamiga munosabati, ishlab chiqarish tajribasi, mehnat intizomi, ekologik mas'uliyati hamda jamoa manfaatlarini anglashida namoyon bo'ladi. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida oziq-ovqat xavfsizligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, ilm-fan, ta'lim va axborot xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [1]. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi texnik va moliyaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda, aholining agrar tafakkuri va ijtimoiy faolligiga ham bog'liq. Strategiya 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmon bilan tasdiqlangan.

Agrar madaniyat - insonning agrar faoliyatga oid bilimlari, qadriyatlari, xulq-atvor me'yorlari va amaliy tajribasining o'zaro uyg'un tizimidir. U ishlab chiqarish texnologiyalarini bilishdan tashqari, mehnatga hurmat, tabiat oldidagi mas'uliyat, resurslarni tejash, mahsulot sifatiga e'tibor va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olishni ham anglatadi. Demak, agrar madaniyat shaxsning kasbiy tayyorgarligi bilan uning ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini birlashtiradi. Agrar madaniyat individual tarzda yuzaga kelmaydi. Insonning yerga, mehnatga va jamoaga munosabati u yashayotgan ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. P. Burdye ta'kidlaganidek, shaxsning kundalik amaliyoti ijtimoiy muhitda egallangan moyilliklar, tajribalar va qadriyatlar tizimi bilan bog'liq [2,101]. Shu nuqtayi nazardan qishloq aholisining agrar faoliyati ham oilaviy tarbiya, mahalliy urf-odatlar, iqtisodiy sharoit, ta'lim va jamoatchilik fikri ta'sirida rivojlanadi. Agrar madaniyatning ijtimoiy xususiyati qishloq xo'jaligi mehnatining jamoaviy mohiyatida ham ko'rinadi. Suvdan foydalanish, ekinlarni zararkundalardan himoya qilish, umumiy infratuzilmani saqlash yoki mahsulotni bozorga chiqarish birgina xo'jalikning harakati bilan cheklanmaydi. Bunda o'zaro ishonch, kelishuv va hamkorlik talab qilinadi. Shuning uchun agrar madaniyatning rivojlanish darajasi qishloq hududlaridagi ijtimoiy munosabatlar sifatini ham ifodalaydi.

Oila agrar madaniyat shakllanadigan dastlabki ijtimoiy makondir. Qishloq bolasining mehnatga munosabati, yer va suvning qadrini anglashi, hosil yetishtirish jarayoniga qiziqishi, avvalo, oiladagi kundalik faoliyat orqali yuzaga keladi. Kattalarning mehnatsevarligi, mahsulotni isrof qilmasligi, tomorqadan oqilona foydalanishi va tabiatga ehtiyotkor munosabati yosh avlod uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi. Biroq an'anaviy tajribaning o'zi zamonaviy agrar faoliyat uchun yetarli emas. Ayrim hollarda avloddan avlodga o'tib kelayotgan usullar yangi ekologik yoki texnologik talablarga mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun oilaviy tajribani ilmiy bilimlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Keksa avlodning mahalliy sharoit, tuproq, iqlim va suv rejimiga oid bilimlari yoshlarning raqamli texnologiyalar va zamonaviy agrotexnika haqidagi tasavvurlari bilan birlashgandagina samarali natija yuzaga keladi. Mahalla esa agrar qadriyatlarni jamoaviy me'yor darajasiga ko'taradigan muhim institutdir. Hashar, ariqlarni tozalash, ko'kalamzorlashtirish, tomorqalardan samarali foydalanish va ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi faoliyatlar hamjihatlikni mustahkamlaydi. Mahalla doirasida "namunali tomorqa", "tejamkor xonadon" yoki "ekologik mas'ul oila" kabi tashabbuslarning rag'batlantirilishi ijobiy tajribaning ommalashishiga xizmat qiladi.

Agrar madaniyatni zamonaviy talablar asosida shakllantirishda ta'lim hal qiluvchi omillardan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologiya, biologiya, geografiya va texnologiya fanlarini hududning agrar xususiyatlari bilan bog'lab o'qitish o'quvchilarning amaliy tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, suv tanqis hududlarda suvni tejash, sho'rlangan joylarda tuproq unumdorligini saqlash, tog'oldi qishloqlarida eroziyaga qarshi kurash masalalarini amaliy mashg'ulotlarga kiritish mumkin. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim insonda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yaxlit anglash hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishi kerak [3,17]. UNESCO yondashuvida ham barqaror rivojlanish ta'limi bilim berish bilangina cheklanmay, qadriyat, ko'nikma va mas'uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun agrar ta'lim nazariya bilan amaliyot, mahalliy tajriba bilan innovatsiya o'rtasidagi aloqani ta'minlashi lozim. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ham qishloq aholisi dunyoqarashiga tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Videodarslar, fermerlarning tajriba almashish guruhlarini, ob-havo ma'lumotlari, bozor narxlarini va agrotexnik tavsiyalar agrar bilimlarni tezkor tarqatish imkonini beradi. Biroq axborotning ko'pligi uning ishonchliligini kafolatlamaydi. Tekshirilmagan tavsiyalar, noto'g'ri reklama yoki muayyan hududga mos bo'lmagan texnologiyalar iqtisodiy zarar keltirishi mumkin. Shu bois raqamli savodxonlik zamonaviy agrar madaniyatning ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Qishloq hududlarida agrar faoliyat samaradorligi aholining o'zaro ishonchi, hamkorlik qobiliyati va umumiy manfaat yo'lida birlasha olishiga bog'liq. Ushbu xususiyatlar ijtimoiy kapital tushunchasi orqali ifodalanadi. Ijtimoiy kapital - odamlarning muayyan tarmoqlar, hamkorlik me'yorlari va o'zaro ishonch vositasida mavjud imkoniyatlardan birgalikda foydalanish salohiyatidir [4,241].

Fermerlar va tomorqa egalari o'rtasidagi kooperatsiya texnika, urug', bilim, saqlash omborlari va transport imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Yakka xo'jalik uchun qimmat bo'lgan texnologiya bir nechta ishlab chiqaruvchining hamkorligi orqali qulaylashadi. Bundan tashqari, kooperatsiya mahsulot sifatiga yagona talab o'rnatish, qayta ishlashni yo'lga qo'yish va bozorda barqaror o'rin egallash imkonini oshiradi. Hamkorlikning

shakllanishiga faqat iqtisodiy manfaat yetarli emas. Odamlar o'rtasida ishonch bo'lmasa, jamoaviy loyihalar qisqa muddatli bo'lib qoladi. Shu sababli shaffof boshqaruv, majburiyatlarning aniq taqsimlanishi, manfaatlarining adolatli hisobga olinishi va nizolarni kelishuv asosida hal etish agrar madaniyatning ijtimoiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Agrar madaniyatning istiqboli qishloq yoshlarining agrar faoliyatni qanday qabul qilishiga bog'liq. Qishloq xo'jaligi faqat og'ir jismoniy mehnat sifatida tasavvur qilinsa, yoshlarning sohaga qiziqishi pasayadi. Aksincha, u ilm-fan, muhandislik, biologiya, ekologiya, tadbirkorlik va raqamli boshqaruvni birlashtiruvchi zamonaviy faoliyat sifatida ko'rsatilsa, yoshlarning innovatsion salohiyati yuzaga chiqadi. Yosh fermerlar maktablari, tajriba maydonlari, startap tanlovlari va ustoz-shogird dasturlari nazariy bilimni amaliyot bilan bog'laydi. Yoshlarning dronlar, masofaviy kuzatuv, aqlli sug'orish, elektron savdo va mobil maslahat xizmatlaridan foydalanishi agrar faoliyatning yangi madaniy modelini yaratadi. Bunda texnologiya maqsad emas, balki resurslarni tejash va inson mehnatini yengillashtirish vositasi sifatida baholanishi lozim. Qishloq xotin-qizlarining agrar hayotdagi hissasi ham alohida e'tiborni talab qiladi. Ular tomorqa xo'jaligi, chorvachilik, urug' va mahsulotlarni saqlash, oilaviy tadbirkorlik hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda katta tajribaga ega. Xotin-qizlarning bilim, kredit, yer, texnologiya va bozor axborotidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish nafaqat iqtisodiy faollikni, balki oiladagi ekologik va iste'mol madaniyatini ham yuksaltiradi.

Zamonaviy qishloq aholisi agrar madaniyatini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, uzluksiz agrar-ma'rifiy tizimni shakllantirish zarur. Maktab, kasbiy ta'lim, oliy ta'lim, fermerlar kengashi va mahalla faoliyati o'zaro bog'lanishi lozim. Qisqa muddatli o'quv kurslari faqat hosildorlikni oshirishga emas, ekologik xavfsizlik, mehnat huquqi, kooperatsiya, moliyaviy savodxonlik va raqamli axborotni tahlil qilishga ham yo'naltirilishi kerak. Ikkinchidan, ilg'or tajribani ommalashtirishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish muhim. Bir viloyatda samarali bo'lgan usul boshqa hududning suv, tuproq yoki iqlim sharoitiga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli mahalliy tajriba xo'jaliklari, dala seminarlar va fermerdan fermerga maslahat berish tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, agrar madaniyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur. Bunda faqat hosildorlik emas, suv sarfi, tuproq unumdorligini saqlash, chiqindilarni kamaytirish, mahsulot xavfsizligi, jamoaviy loyihalardagi ishtirok va yoshlarning sohaga jalb etilishi ham hisobga olinishi kerak. Bunday yondashuv agrar taraqqiyotni iqtisodiy natija bilan birga ijtimoiy va ekologik mas'uliyat asosida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Zamonaviy qishloq aholisi agrar madaniyati texnika yoki agrotekhnika bilimlarning oddiy yig'indisi emas. U insonning mehnat, tabiat, jamiyat va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatini ifodalovchi yaxlit ijtimoiy-madaniy tizimdir. Uning shakllanishida oila dastlabki tarbiya muhiti, mahalla jamoaviy nazorat va hamkorlik maydoni, ta'lim muassasalari ilmiy bilim manbai, axborot vositalari esa yangiliklarni tarqatuvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Ijtimoiy omillarning uyg'un faoliyati qishloq aholisida yer va suvga egalik hissadan tashqari, ulardan mas'uliyat bilan foydalanish madaniyatini ham qaror toptiradi. Agrar taraqqiyotning barqarorligi qishloq aholisi islohotlarning oddiy ijrochisi emas, balki tashabbuskor va ongli subyekti sifatida shakllangan taqdiridagina ta'minlanadi. Shu bois agrar madaniyatni rivojlantirish davlat, ta'lim tizimi, mahalla, oila, fermerlar va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligiga asoslangan uzluksiz ijtimoiy jarayon bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. – Toshkent: Adolat milliy huquqiy axborot markazi, 2019. – 48 b.
2. Bourdieu P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1984.
3. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2020. – 66 p.
4. Bourdieu P. The Forms of Capital // Richardson J. G. (ed.). Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood Press, 1986. – P. 241–258.
5. Coleman J. S. Foundations of Social Theory. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1990. – 993 p.
6. Putnam R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000.
7. FAO. The State of Food and Agriculture 2014: Innovation in Family Farming. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2014. – 161 p.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2017. – 62 p.

Zamonaviy qishloq aholisi agrar madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy omillarning o'rni

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy qishloq aholisi agrar madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Agrar madaniyatning mazmuni faqat dehqonchilik ko'nikmalari bilan chegaralanmasdan, yer va suvga mas'uliyatli munosabat, mehnat etikasi, ekologik tafakkur, jamoaviy hamkorlik hamda innovatsiyalarni qabul qilish qobiliyatini qamrab olishi asoslanadi. Shuningdek, ijtimoiy kapital, raqamli savodxonlik, avlodlararo tajriba almashinuvi va qishloq yoshlarining faolligi agrar madaniyat rivojining muhim shartlari sifatida baholanadi. Maqolada agrar madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: agrar madaniyat, qishloq aholisi, ijtimoiy omil, mahalla, ekologik tafakkur.

Роль социальных факторов в формировании аграрной культуры современного сельского населения

Резюме. В статье с философской и социальной точек зрения анализируются социальные факторы, влияющие на формирование аграрной культуры современного сельского населения. Обосновывается, что содержание аграрной культуры не ограничивается навыками земледелия, а включает ответственное отношение к земле и воде, трудовую этику, экологическое мышление, коллективное сотрудничество и способность воспринимать инновации. Социальный капитал, цифровая грамотность, межпоколенческий обмен опытом и активность сельской молодежи рассматриваются как важнейшие условия развития аграрной культуры. Предлагаются практические меры по её дальнейшему совершенствованию.

Ключевые слова: аграрная культура, сельское население, социальный фактор, махалля, экологическое мышление.

The role of social factors in forming the agrarian culture of the modern rural population

Abstract. This article analyzes the social factors influencing the formation of the agrarian culture of the modern rural population from philosophical and social perspectives. It argues that agrarian culture is not limited to farming skills but also includes a responsible attitude toward land and water, work ethics, environmental thinking, collective cooperation and openness to innovation. Social capital, digital literacy, intergenerational transmission of experience and the active participation of rural youth are considered essential conditions for developing agrarian culture. The article also proposes practical measures for improving the social mechanisms that support sustainable agricultural behavior.

Key words: agrarian culture, rural population, social factor, mahalla, environmental thinking.
